

---

## TOJIKISTONLIK ADABIYOT VA MADANIYAT VAKILLARI – RISHTONDA!

Kecha 31 oktyabr kuni qo'shni Tojikistonning So'g'd viloyatidan shoir va adiblar Rishton tumanida bo'lishdi. Mehmonlar o'zbek-tojik do'stlik jamiyati markazida katta tantana bilan kutib olindi. Tuman hokimi S.Soliev aziz mehmonlarni qutlab, ikki xalq madaniy aloqalari rivojlanib borayotganini izhor etdi.

- Qo'shni Tojikiston bilan O'zbekistonni umumiy tarix, uzviy ma'naviy qadriyatlar bog'lab turadi. Biz - ikki qardosh xalq azaldan bir daryodan suv ichib, o'zaro quda-anda bo'lib, et bilan tirnoqday yashaganmiz. Garchi ikki tilli bo'lsak-da, turish-turmushimiz, madaniyatimiz bir. Azaliy qo'shnilik va o'zaro hurmat an'analari davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda mustahkam asos bo'lib xizmat qilyapti. O'tgan qisqa davr ichida tojik - o'zbek munosabatlarini mustahkamlash uchun juda kuchli turtki berildi. Ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu hamkorlik ikki qardosh mamlakat uchun juda foydali bo'lmoqda. Sizlarni tumanimizda kurib turganimizdan xursandmiz. Uylaymanki, bugungi kun sizlar uchun taassurotlarga boy bo'ladi, dedi tuman hokimi o'z nutqida.

O'z navbatida tojikistonlik mehmonlar ham ikki qardosh halqning do'stligi haqida gapirib o'tishdi.

Shundan keyin tojikiston delegatsiyasi vakillari usta kulol Ravshan Tojiddinov tomonidan tashkil etilgan "R+Koron" korxonasiga qarashli uy muzeyida bo'lishdi. Bu yerdagi bir-birini takrorlanmas san'at asarlari tojikistonlik shoir va adiblarni lol qoldirdi.

Mehmonlarning keyingi manzili "Xalqaro kulollar markazi" bo'ldi. Tojikistonlik shoir va adiblar ushbu maskanda hunarmandlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan alohida e'tirof etishdi. Kunning ikkinchi yarmida Madaniyat uyida So'g'd va Rishton ijodkorlari o'rtasida «Ganji suxan - So'z xazinasi» ilmiy-adabiy uchrashuvi bo'ldi. Unda bedilshunos olim Nurali Nurov, shoira Gulnoz Tohiriyon, Tojikiston elchixonasi vakili Shahboz Shoevlar bilan rishtonlik shoir va yozuvchilar o'rtasida mushoira bo'lib o'tdi.

2022-11-01 09:10:59